

# Xalq so‘zi

O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL“ IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2025 йил 24-апрель, № 83 (8978) Payshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

# TURKMAN XALQINING MILLIY YETAKCHISI SAMARQANDGA KELDI

**Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov 23-aprel kuni tashrif bilan O‘zbekistonga keldi.**



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

Tantanali ravishda ikki mamlakat bayroqlari bilan bezatilgan Samarqand xalqaro aeroportida oliy martabali mehmonni davlatimiz rahbari kutib oldi.

Samarqand shahridagi tadbirlar doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov birgalikda Hazrati Xizr majmuasiga tashrif buyurib, Birinchi Prezidentimiz xotirasiga hurmat ko‘rsatdilar.

Qabrga gullar qo‘yildi. Qur’on tilovat qilindi.

Shundan so‘ng davlatimiz rahbari va Turkman xalqining milliy yetakchisi birgalikda “Buyuk Ipak yo‘li” xalqaro turizm markazidagi “Boqiy shahar” tarixiy-etnografik majmuasi hududida tashkil etilgan madaniy tadbirlarda ishtirok etdilar.

Oliy martabali mehmon xalqimizning boy madaniy merosini aks ettiruvchi ko‘rgazmalar, hunarmandchilik va amaliy san’at namunalari bilan tanishdi. Raqs jamoalarining chiqishlaridan iborat madaniy dastur namoyish etildi.

Tashrif dasturiga muvofiq ikki tomonlama uchrashuv o‘tkazish ko‘zda tutilgan.

Muzokaralarda O‘zbekiston – Turkmaniston do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash masalalari ko‘rib chiqiladi.

# O‘ZBEKISTON PREZIDENTI ROSSIYA TASHQI ISHLAR VAZIRINI QABUL QILDI

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 23-aprel kuni Samarqand shahrida amaliy tashrif bilan mamlakatimizga kelgan Rossiya Federatsiyasi tashqi ishlar vaziri Sergey Lavrov boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.**

Uchrashuv avvalida yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Suhbatda O‘zbekiston – Rossiya do‘stlik, keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish nuqtayi nazaridan yanada mustahkamlashning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Barcha yo‘nalishlarda faol muloqotlar va sermahsul almashinuvlar olib borilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Tovar ayirboshlash va investitsiyalar hajmi oshmoqda. Hududlar va yetakchi sanoat korxonalarining kooperatsiyasi kuchaymoqda. Madaniyat, san’at, fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, sport va turizm sohalaridagi hamkorlik kengayib bormoqda.

Tomonlarni qiziqtirgan mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

**O‘zA.**

## Senat qo‘mitasida

*21 – 23-aprel kunlari Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya qo‘mitasi tomonidan Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Toshkent davlat agrar universiteti, O‘zbekiston Milliy universiteti bilan hamkorlikda xalqaro Yer kuni munosabati bilan bir qator seminar va ilmiy-amaliy konferensiyalar o‘tkazildi.*

# ONA ZAMINIMIZ MEHRGA MUHTOJ

**Xalqaro Yer kuni doirasida yer degradatsiyasiga qarshi kurashish bo‘yicha innovatsion yondashuvlar muhokama qilindi**

Tadbirlarda senatorlar, deputatlar, vazirlik va idoralar vakillari, olim va mutaxassislar, xalqaro ekspertlar ishtirok etdi.

Xususan, **“Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning intensiv va innovatsion yechimlari, yer resurslaridan foydalanishni raqamlashtirish”** mavzuidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda mamlakatimiz uchun yer resurslari eng asosiy tabiiy boylik hisoblanishi va yerlardan oqilona foydalanish hamda ularni muhofaza qilish umummilliy ahamiyatga ega bo‘lgan ustuvor vazifalardan biri ekanligi ta’kidlandi.

Tadbirda qayd etilishicha, global miqyosda har yili 7-8 mln. gektar hosildor yerlar degradatsiyaga uchramoqda. O‘zbekistonda ayrim hududlarda gumus miqdori 40 – 50 foizgacha kamaygan, bu esa tuproqning biologik faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Ma’lumotlarga ko‘ra bugungi kunda dunyoda 1,3 mlrd. gektardan ko‘p yer maydonlari degradatsiyaga uchragan. Shuningdek, jahon bo‘yicha har yili 24 mlrd. tonna hosildor tuproq yo‘qolmoqda, bu esa oziq-ovqat xavfsizligiga jiddiy tahdid solyapti.

Bu borada yer islohotlarini jadallashtirish, yer munosabatlarini tartibga solish, qishloq xo‘jaligi, ayniqsa, sug‘oriladigan yerlar unumdorligini oshirish, yaylovlar degradatsiyasi oldini olish, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish, yerlarning hisobini yuritishni takomillashtirish bo‘yicha tegishli qonunlar qabul qilish yoki amaldagi qonunlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish yuzasidan muntazam ishlar olib borilmoqda.

➡ 2

## Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

# Korrupsion omillarning oldini olish: DAVLAT XARIDLARIDA RAQOBATSIZ SAVDOLARGA BARHAM BERILADI

*Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo‘mitasi tomonidan davlat xaridlarida korrupsiyaning oldini olish, raqobatsiz savdolar hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar asosida amalga oshirilayotgan bitimlarni qisqartirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi mutasaddilari ishtirokida eshituv tashkil etildi.*

Byudjet va iqtisodiy masalalar qo‘mitasi raisi Sharofiddin Nazarov kirish so‘zida Prezidentimiz rahbarligida barcha sohada hayotiy islohotlar davom ettirilayotgani hamda taraqqiyotga g‘ov bo‘ladigan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilayotganini ta’kidladi. Xususan, davlatimiz rahbarining shu yil 21-apreldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni hamda “Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari mustaqilligini ta’minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ushbu illatga barham berishda muhim asos bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘z navbatida, ushbu hujjatlar ijrosi parlament, davlat tashkilotlaridan tortib fuqarolik jamiyati institutlari zimmasiga katta mas’uliyat yuklashi ta’kidlandi.

Yig‘ilishda davlat xaridlari tizimida raqobatsiz savdolar va korrupsiya holatlarining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar xususida Iqtisodiyot va moliya vaziri o‘rinbosari Gulnora Rahimovaning axboroti eshitildi.

Ta’kidlanganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda davlat xaridlari yo‘nalishida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash hamda raqobatli savdolarni amalga oshirishga qaratilgan tizimli islohotlar ro‘yobga chiqarilmoqda.

➡ 2

## Fikr

*Korrupsiyaga qarshi kurashishda har bir normativ-huquqiy hujjat tizimli ahamiyatga ega. Jumladan, ayrim Farmon va qarorlar bevosita natijaga ta’sir etuvchi institutsional o‘zgarishlarni boshlab berishga xizmat qiladi.*

# INSTITUTSIONAL IMMUNITET YARATISH SARI MUHIM QADAM

Yaqinda Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmon hamda “Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari mustaqilligini ta’minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror shular jumlasidandir.

Farmon bilan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengash har yili hududlar kesimida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari, prokurorlar va ichki ishlar organlari boshliqlari bilan birgalikda korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish, shu jumladan, maishiy korrupsiyaga barham berish, ushbu illatga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini shakllantirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqilishi belgilandi.

Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashishda parlament palatalari ishtirokini kengaytirishga doir muhim vazifalar amaliyotga tatbiq etilmoqda. Sababi parlament – bu davlat mablag‘lari sarflanishini tasdiqlovchi va xalq nomidan nazorat qiluvchi muhim institut. Shu bois Oliy Majlis palatalarining korrupsiyaga qarshi institutsional ta’sirini tubdan kuchaytirish bugungi kunda strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Chunki qonunchilikka muvofiq byudjet mablag‘lari qaysi sohalarga ketmoqda – buni aynan parlament a’zolari tasdiqlaydi. Ammo ayni mablag‘lar samarali va shaffof sarflanyaptimi, bu savolga parlament faqat hisobot eshitish bilan emas, balki amaliy tahlil va profilaktika bilan ham javob berishi lozim.

Prezident Farmonida parlament a’zolari har yili byudjetdan eng ko‘p mablag‘ oladigan uchta vazirlik va idorada korrupsiyaviy omillarni aniqlab, ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar kiritib borishi belgilanmoqda. Shuningdek, vazir va hokimlar lavozimiga nomzodlar tegishlicha Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari mahalliy Kengashlarida ko‘rib chiqilayotganda ular tomonidan korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha aniq reja himoya qilinishiga oid tartib belgilandi. Unga ko‘ra har bir nomzod “Men rahbar sifatida sohada qanday islohotlar orqali korrupsiya xavfini kamaytiraman?” degan savolga javob berishi kerak bo‘ladi.

Haqiqatan ham, parlamentning qonun qabul qilish bilan birga faol tahlilchi va nazoratchi organ sifatida ham ish olib borishi korrupsiyani institutsional darajada cheklash imkonini beradi. Bu orqali jamiyat davlat boshqaruvidagi hisobdorlikka ishonadi, tizimda esa haqiqiy adolat va samaradorlik shakllanadi.

➡ 2

## Yurtimiz bo‘ylab...

# AVLIYOLAR DIYORI, ALPLAR YURTI — BUXORO!

1

***Eng qadim kentlarning piri – Buxoro,***
***Sharif shaharlarning duri – Buxoro.***

***Daholar maskani, “Tangri jamoli”,***
***Islom olamining nuri – Buxoro!***

Buxoro... 1997-yilda 2500-yillik yubileyi nishonlangan, viloyat sifatida 1938-yilda tashkil etilgan deyilsa-da, Miloddan avvalgi ming-ming yilliklarga tutashib ketgandir uning ildizlari.

Xitoycha Buxe, Buxala; arabcha Bumijkat, Faxira; turk-mo‘g‘ulcha Buxor (“ibodatxona”); so‘g‘diycha “Bug‘” (“Tangri”) hamda “oro” (“jamol”), ya’ni “Tangri jamoli” kabi nodir ismlar bilan atalgan bu qutlug‘ shahri azimning nomini shunchaki tilga olib bo‘lmaydi. Avval poklanib, so‘ngra to‘rt tomonida tog‘day qo‘r to‘kib turgan yetti Pirga ta’zim qilgandan keyingina lozim ko‘riladi uning ostonasiga qadam qo‘ymoq.

Yer yuzidagi yuzlab shaharlarning biri emas – O‘rta asrlardayoq Makka, Madina, Quddus, Bag‘dod, Damashq, Mozori-Sharif kabi “Sharif” unvoniga sazovor bo‘lgan jahondagi yetti muqaddas qasrning Piri hisoblanadi u. “Malik ul-kalom” nomini olgan Abu Abdulloh Rudakiy, hadis ilmining sultoni Imom al-Buxoriy, allomalar Narshaxiy, Ibn Sino, Daqiqiy, Bal’amiy, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Nosir Buxoriy, Hofiz Tanish Buxoriy, Mushfiqiy, Turdi Farog‘iy, Ahmad Donish kabi ne-ne mo‘tabar zotlarning izlari bor Buxoroning tor ko‘chalarida. Tuprog‘ining har zarrasi ko‘zlarga to‘tiyo, Minorai Kalon, Masjidi Kalon, Chor Minor, Mir Arab kabi bulutlarga yondosh minorayu madrasalarining har g‘ishti beadoq doston, har bo‘yog‘i afsonaviy chamanzor bog‘.

Ko‘chalar muyulishidagi mo‘ysafid tutlar, o‘ychan tolu gujumlar barhayot baxshilar misoli bobolarimizning olis armonlaridan, Spitamen na’rasi, Mahmud Torobiy hayqirig‘i, sarbadorlar qilichining jaranglari, erk-ozodlik yo‘lida kurashgan shavkatli ajdodlarimizning birda shodon, birda vayron, birda to‘zonu to‘fonli kunlaridan dardchil hikoyatlar so‘ylaydi. Shahar osmonida sokin qanot yozgan oq laylaklar, Labi Hovuz bo‘yidagi sertabassum Nasriddin Afandi esa bu dunyo alomatlari qoshida lolu hayron turgandek bo‘ladi go‘yo...

Necha yuz yillardan buyon dunyo tabiblariga darslik bo‘lib kelayotgan “Tib qonunlari” muallifi Abu Ali ibn Sino hazratlari, Sulton Boyazid ikkinchi davrida miniatyura san’atini birinchi bo‘lib Turkiyaga olib kirgan o‘zbek san’atkori Bobo naqqoshdan to akademik Ibrohim Mo‘minov va shoir Sadriddin Salimgacha bo‘lgan yana yuzlab allomalarga beshik bo‘lgan bu tabarruk diyor. Uning har giyohi, har daraxti, har yo‘lagi, har nafasi ochilmagan sirlar, aytilmagan alyorlar, yozilmagan dostonlar saltanati – bularni ta’riflash uchun esa, eh-he, necha-necha Firdavsiylar kerak!

Iskandar bosqinlari, Chingiz qutqulari, arabu mo‘g‘ullarning muhorabalari! Buxorxudotlar, somoniylar, shayboniylar zamonida davlat poytaxti bo‘lgan; necha xonu amirlarning toju taxt talashishlaridan, Oqposhsho hiylalari, sho‘ro makri va kazzob Frunzening bombalaridan jonu jahoni vayron Buxoro. Fayzulla Xo‘janing ko‘z yoshlari, jadidlar chekkan qiynoqlar, qirg‘inlardan jigar-bag‘ri ezilgan Buxoro...

➡ 3

# TARBIYA FANI DASTURLARINI TAKOMILLASHTIRISHGA E’TIBOR QARATILDI



*Avval xabar berganimizdek, Oliy Majlis Senatining Fan, ta’lim va sog‘liqni saqlash masalalari qo‘mitasi hamda Qonunchilik palatasining Fan, ta’lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo‘mitasining qo‘shma majlisida tarbiya fani orqali o‘quvchilarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, har bir yoshning qalbida qadriyatlarga hurmat hissini shakllantirish va ularga halollik, vijdon, insof, adolatparvarlik kabi insoniy fazilatlarni sodda va ta’sirchan tarzda tushuntirib borish masalalari muhokama etilgan edi.*

Kuni kecha Senatning Fan, ta’lim va sog‘liqni saqlash masalalari qo‘mitasi yana tarbiya fani dasturlarini takomillashtirish bo‘yicha ishchi guruhi yig‘ilishini o‘tkazdi.

Unda umumta’lim maktablarida o‘qitilayotgan tarbiya fanini mazmun jihatdan boyitish hamda o‘quvchi-yoshlarning ongiga halollik, birovning haqiga xiyonat qilmaslik kabi insoniy fazilatlarni sodda va tushunarli shaklda singdirishga qaratilgan maxsus mavzularni qamrab olgan taqdimot ishtirokchilar e’tiboriga havola etildi.

Ishchi guruhga jalb qilingan olimlar, ekspertlar hamda amaliyotchi pedagoglar tomonidan amaldagi tarbiya faniga kiritilgan mavzularga qo‘shimcha ravishda halollik, samimiylik, vijdonlilik, to‘g‘rilik, rostgo‘ylik, ishonchlilik, sadoqat tushunchalarini shakllantirishga qaratilgan mavzular kiritilayotganligi qayd etildi.

Xususan, yangi kiritilayotgan mavzularni, asosan, amaliyotdan foydalangan holda tushuntirish, bunda o‘quvchilarda 1-sinfdan boshlab halollik va birovning haqiga xiyonat qilmaslik ko‘nikmalarini dars jarayonida shakllantirib borish usullaridan foydalanish taklif etilmoqda.

Shuningdek, o‘quvchilarda boshlang‘ich sinfdan “aldab pul topish” va “mehnat bilan pul topish” o‘rtasidagi farqni tahlil qila olish, korrupsiya nimaligini o‘z so‘zlari bilan tushuntirib berish, adolatli va g‘irrom yo‘l bilan natijaga erishishni farqlash kabi ko‘nikmalarni shakllantirish orqali “korrupsiyaga qarshi kurashuvchi bola” obrazini yaratish maqsadlari nazarda tutilmoqda.

Senatorlar tomonidan o‘quv dasturlariga xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalangan holda korrupsiyaga nisbatan murosasizlik tuyg‘ularini shakllantiruvchi va o‘quvchilarda o‘z nuqtayi nazarini ifoda etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan mavzularni kiritish tavsiya qilindi.

**“Xalq so‘zi”.**

# ONA ZAMINIMIZ MEHRGA MUHTOJ

1

Agrar sohada innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, sun’iy intellekt, raqamli monitoring usullaridan foydalanish, tuproq unumdorligini oshirish, suv tejovchi texnologiyalarni kengaytirish asosiy vazifalardan biri ekanligi ta’kidlandi.

Bundan tashqari, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, ilm-fan va tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash degradatsiyaga uchragan yerlarni qayta tiklashda muhim ahamiyatga ega ekanligi ham aytib o‘tildi.

Shuningdek, **“Atrof-muhit muhofazasi, iqlim o‘zgarishi, degradatsiyaga uchragan tuproqlar unumdorligini oshirishda innovatsion texnologiyalar”** mavzuidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada ham O‘zbekistonda tuproq unumdorligini oshirish va iqlim o‘zgarishiga moslashish bo‘yicha bir qator muhim tashabbuslar amaliyotga tatbiq etilayotganligi ta’kidlandi. Jumladan, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida har yili 200 mln. tupga yaqin ko‘chatlar ekilib, cho‘llanish va shamol eroziyasini kamaytirish borasida salmoqli ishlar qilinyapti. Xususan, Orolbo‘yi hududida qariyb 2 mln. gektar maydonda sho‘rga chidamli o‘simliklar ekilib, chang bo‘ronlarining oldini olish choralari ko‘rilayotgani e’tiborga molik.

Shuningdek, BMT va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda cho‘llanish jarayonlarini kamaytirish hamda barqaror agroekotizimlar yaratish loyihalari amalga oshirilayotganligi xalqaro ekspertlar tomonidan yuqori baholandi. “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” davlat dasturi doirasida ekologik holatni yaxshilash, yer uchastkalaridan samarali foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratilayotir.

Jumladan, joriy yilda mamlakatimizda ekologik barqarorlikka erishish, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish, tarmoq va sohalarning uyg‘un “yashil transformatsiyasi”ni amalga oshirish, iqlim o‘zgarishiga moslashish, uning oqibatlarini yumshatish hamda aholining yashash sifatini yaxshilash, iqtisodiy o‘sishning yangi “yashil rivojlanish” modeliga o‘tish bo‘yicha ko‘plab muhim vazifalarni uddalash ko‘zda tutilgan.

Bundan tashqari, Toshkent davlat agrar universitetida ham **“Yerlardan barqaror foydalanish: muammolar, yechimlar va yutuqlar”** mavzuida respublika ilmiy-amaliy anjumani o‘tkazildi.

Tadbirlar davomida olimlar, mutaxassislar va xalqaro ekspertlar tomonidan qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, yerlarni himoya qilish va ulardan samarali foydalanish, degradatsiyaning oldini olishga oid ilmiy asoslangan takliflar bildirildi.

**“Xalq so‘zi”.**

## Qo‘mitalar hafta ichida



# QONUN IJODKORLIGIGA ILMIY YONDASHUV

*Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Agrar va suv xo‘jaligi masalalari qo‘mitasi tomonidan ilmiy-tadqiqot muassasalari, tahlil markazlari bilan hamkorlikda “Qonun ijodkorligi va parlament nazorat tadbirlarida ilmiy-tadqiqot muassasalari hamda tahlil markazlarining o‘rni” mavzuida davra suhbati o‘tkazildi.*

Qayd etilganidek, ushbu qo‘mita agrar sohada faoliyat olib borayotgan o‘ndan ortiq ilmiy-tadqiqot muassasalari, tahlil markazlari bilan hamkorlik memorandumlari hamda tadbirlar rejalarini imzolab, ular bilan birgalikda faol ishlab kelmoqda. Bu borada tadbirkorlik va fermerlikni qo‘llab-quvvatlash, tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar olib borish, qishloq xo‘jaligida innovatsiyalarni joriy etish, oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasida strategik rivojlanishga qaratilgan tashabbuslar bilan chiqish masalalari kelishib olingan.

Tadbirda qonun ijodkorligi jarayonlari va parlament nazorat tadbirlarini olib borishda ilmiy-tadqiqot muassasalari, tahlil markazlari bilan hamkorlikning ahamiyati haqida so‘z yuritilib, bu bo‘yicha kelgusida olib boriladigan faoliyatning muhim yo‘nalishlari belgilab olindi.

Deputatlar qo‘mita tomonidan ilgari surilayotgan qonun loyihalarining ko‘rib chiqilishida, qishloq xo‘jaligiga oid qonunchilikni takomillashtirish, qonun ijodkorligi jarayonida jamoatchilik ishtirokini kengaytirishda aynan ilmiy-tadqiqot muassasalari va tahlil markazlari muhim ahamiyat kasb etayotganini ta’kidlashdi.

Shuningdek, fermer xo‘jaliklari, qishloq xo‘jaligi klasterlari va koorperatsiyalari, ilg‘or xorijiy ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yishda, yangi ilmiy ishlanmalar, innovatsiyalar hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish yuzasidan ilg‘or g‘oyalar bilan faol qatnashishi kerakligi aytildi.

Yakunda ilmiy-tadqiqot va tahlil markazlari bilan kelgusida hamkorlikda amalga oshiriladigan istiqbolli rejalar belgilab olindi.

# MUHOKAMADA – BYUDJET MABLAG‘LARINING SARFLANISHI

*Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasining yig‘ilishida Tashqi ishlar vazirligi va Favqulodda vaziyatlar vazirligining joriy yil birinchi choragida byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish holati va ajratilgan mablag‘larning sarflanishi bo‘yicha hisobotlari muhokama qilindi.*

Ta’kidlanganidek, so‘nggi yillarda davlat organlari faoliyati ochiqligi va shaffofligini ta’minlash, byudjet mablag‘larining shakllanishi va sarflanishi ustidan parlament hamda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, bu yo‘nalishda Prezidentning “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlari doirasida respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Mazkur qarorga muvofiq davlat organlari o‘zlariga ajratilgan byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan erishilishi lozim bo‘lgan maqsadli ko‘rsatkichlar hamda sarflangan mablag‘lar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkora e’lon qilib borishi va parlament oldida hisobot berishi shart etib belgilangan.

Tashqi ishlar vazirligi taqdim etgan hisobotga ko‘ra joriy chorakda vazirlikka 36 mlrd. so‘mdan ortiq fond mablag‘lari ajratilgan. Ularning 23 mlrd. so‘mga yaqini o‘zlashtirilgan. Shu bilan birga, Davlat byudjeti hisobidan 15,4 mlrd. so‘m mablag‘ ajratilib, shundan 11,4 mlrd. so‘mi amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan.

Yig‘ilishda Favqulodda vaziyatlar vazirligining belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish va ajratilgan mablag‘larning sarflanishi yuzasidan axboroti atroflicha ko‘rib chiqildi. Shuningdek, vazirliklar tomonidan amalga oshirilgan ishlar bilan birga tizimdagi mavjud muammolar, ularni bartaraf etish bo‘yicha rejalar muhokama markazida bo‘ldi.

Deputatlar tomonidan byudjet mablag‘laridan samarali foydalanish, maqsadli indikatorlar ijrosiga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni belgilash va ularning bajarilishini izchil ta’minlash, hisobotlarni muntazam ravishda ko‘rib borish va bu jarayonni qat’iy nazoratga olish lozimligi qayd etildi.

Yakunda vazirliklar hisobotlarini muntazam eshitib borish, faoliyat samaradorligini baholash hamda kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha zarur choralar ko‘rish yuzasidan vazifalar belgilab olindi.

**“Xalq so‘zi”.**

## Senator va hayot

# SUG‘URTA QONUNCHILIGIDAGI ZIDDIYATLARNI BARTARAF ETISH YUZASIDAN HUKUMATGA SO‘ROV YUBORILDI

*O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab qo‘yilgan inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash davlat organlarining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Yangi tahrirdagi Bosh qomusimizda ham inson qadrini ulug‘lash g‘oyasi qat’iy mustahkamlangan.*

Shu bois fuqarolarning murojaatlari asosida mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha senatorlar tomonidan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Oliy Majlis Senati a’zosi Qutbiddin Burhonov shu nuqtayi nazardan sug‘urta sohasi qonunchiligida mavjud tafovut va qarama-qarshiliklar oqibatida fuqarolarda jiddiy muammolar yuzaga kelayotgani holati yuzasidan Hukumatga senator so‘rovi bilan murojaat qildi.

So‘rovda ta’kidlanganidek, sug‘urta sohasidagi ayrim qonun va qonunosti hujjatlarining o‘zaro nomuvofiqligi tufayli fuqarolarning haqli talablari inkor etilmoqda. Xususan, transport vositasini haydovchi shaxslar soni cheklanmagan deb ko‘rsatib sug‘urta qildirgan bir fuqaro yo‘l harakati hodisasiga uchraganidan so‘ng sug‘urta tovonidan mahrum bo‘lgan. Bunga sug‘urta kompaniyasi tomonidan transport vositasi egasining farzandi haqida sug‘urta polisida ma’lumot yo‘qligi bahona qilingan.

Biroq amaldagi qonunchilikda bunday holatda yaqin qarindoshlarni alohida ko‘rsatish talabi mavjud emas. Shu bilan birga, Prezident Farmoni bilan 2019-yildan buyon yaqin qarindoshlar o‘rtasida ishonchnomani notarial tasdiqlash talabi bekor qilingan.

Bunday ziddiyatli vaziyatlar ko‘plab fuqarolarning e’tirozlariga sabab bo‘lmoqda. Istiqbolli loyihalar milliy agentligiga 2023-yilda shunday mazmunda 100 dan ortiq murojaatlar kelib tushgani ham buning tasdig‘idir.

Senator so‘rovida Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 24-iyundagi 141-qarorida nazarda tutilgan qoidalarga tegishli o‘zgartirish va aniqlik kiritish orqali bu kabi muammolarni hal qilish imkoniyati mavjudligi qayd etilgan.

Mazkur masala yuzasidan Hukumatdan o‘z munosabatini bayon qilish, shuningdek, Vazirlar Mahkamasi tomonidan ko‘rilayotgan choralar va ularning natijalari haqida yozma shaklda asoslangan tushuntirish berish so‘ralmoqda.

Senator so‘rovining javobi Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi majlisida muhokama etilib, tegishli qaror qabul qilinishi nazarda tutilmoqda.

**“Xalq so‘zi”.**

Korrupsion omillarning oldini olish:

# DAVLAT XARIDLARIDA RAQOBATSIZ SAVDOLARGA BARHAM BERILADI

1

Savdolarda elektron tender tizimiga o‘tilishi savdo jarayonlarini onlayn tarzda o‘tkazish, xarajatlarni kamaytirish va korrupsiyaga qarshi kurashish imkonini bermoqda. “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilingani tender jarayonlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, raqobatning ochiq shakllarini joriy etish, shuningdek, to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzish imkoniyatlarini cheklash, savdoda qatnashuvchi aloqador va affillangan shaxslarni ro‘yxatga olish uchun huquqiy asos bo‘lmoqda. Sohada shaffoflik va ochiqlikni ta’minlash maqsadida barcha tender savdolarining rejalari, natijalari va shartnoma baholari OAVda e’lon qilinyapti. Bu esa jamoatchilik tomonidan mazkur sohada nazorat va monitoringni amalga oshirish uchun imkoniyatlar yaratmoqda.

Muhokama chog‘ida yurtimizda fuqarolarda davlat mablag‘larining qanday sarflanayotganiga nisbatan befarqlik hissi yo‘qolib, davlat xaridlari ustidan jamoatchilik nazorati kuchayib borayotgani e’tirof etildi. Buni davlat organlari, vazirliklar, mahalliy hokimliklar yoki davlat ulushiga ega tashkilotlar tomonidan asossiz, qimmat yoki korrupsiya ehtimoli yuqori bo‘lgan xaridlar amalga oshirilganligiga oid xabarlar ijtimoiy tarmoqlarda ko‘plab muhokamalarga sabab bo‘layotganidan ham ko‘rish mumkin. Xalq vakillarining fikricha, tender savdolarida raqobatning kuchayishi narxlarni 20 – 30 foizga pasaytirish hamda byudjet mablag‘larini oqilona sarflash imkonini beradi.

Deputatlar davlat xaridlari tizimini tartibga soluvchi qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratdilar. Yangi tahrirdagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonun va bir qator normativ hujjatlar qabul qilingani hamda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik normalari kiritilgani sohani huquqiy jihatdan tartibga solishda o‘z natijalarini berayotgani e’tirof etildi.

Shu bilan birga, yig‘ilishda davlat xaridlariga oid kamchilik va muammolar tanqidiy ruhda muhokama qilindi. Xususan, “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonun talablariga zid ravishda moliyaviy mablag‘lardan samarasiz foydalanish, tender savdolarida raqobat va xolislikning sustligi hamda korrupsiyaga yo‘l qo‘yilayotgan holatlar ham deputatlarning asosli tanqidiga sabab bo‘ldi. Davlat buyurtmachilari tomonidan xaridlarning raqobatli usullarini chetlab o‘tgan holda qonun hujjatlariga zid ravishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzish, xaridlarni yuqori narxlarda amalga oshirish, ularni qismlarga bo‘lish, ochiqlik va shaffoflik prinsipiga rioya etmaslik holatlari bo‘yicha deputatlarning savollariga mas’ul vazirlik va idoralarning javoblari olindi.



Yig‘ilishda Hisob palatasi hamda Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi mutasaddilarining axborotlari ham deputatlar diqqat-e’tiborida bo‘ldi.

Hisob palatasining audit tadbirlarida jami 5,4 trln. so‘mlik davlat xaridlarini va amaldagi boshqa qonunchilik talablarini buzish holatlariga yo‘l qo‘yilganligi aniqlangan. Bundan tashqari, 3,6 trln. so‘mlik xaridlar to‘g‘risidagi shartnomalar bo‘yicha ma’lumotlar maxsus axborot portaliga joylashtirilmagan.

Tahlillarga ko‘ra 2024-yilda davlat xaridlarining 56,8 foizi (80,3 trln. so‘m) to‘g‘ridan-to‘g‘ri tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshirilgan. Bunda byudjet buyurtmachilarining 55,2 foizi va korporativ buyurtmachilarning 58,7 foizi to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar asosida o‘tkazilgan xaridlarda ishtirok etgan. Umumiy qiymati 2,7 trln. so‘mlik to‘g‘ridan-to‘g‘ri tuzilgan 6 241 ta shartnoma davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik talablari buzilgan holda rasmiylashtirilgan, 61 ta davlat buyurtmachisining 122,8 mlrd. so‘mlik 405 ta to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomasi qonunchilikka zid, manfaatlar to‘qnashuvi mavjud holatda yoki affillangan shaxslar ishtirok etgan savdolar orqali tuzilganligi ma’lum bo‘lgan.

Shu o‘rinda xalq vakillari “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonun va sohaga oid boshqa qonunchilik hujjatlarining to‘g‘ri qo‘llanilishi ustidan davlat nazoratini qonunchilikka muvofiq yanada kuchaytirish bo‘yicha o‘z takliflarini berdi. Ushbu qonunning 76-moddasiga muvofiq xarid qilish tartib-taomillari ustidan jamoatchilik nazorati olib borilishi belgilangan bo‘lib, deputatlar davlat xaridlarini rivojlantirish va takomillashtirishga ko‘maklashish, davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik talablari buzilishining oldini olish va ularni aniqlash hamda davlat buyurtmachilarini, vakolatli davlat organlarini aniqlangan qoidabuzarliklar haqida xabardor qilish borasidagi ishlar talab darajasida emasligiga e’tibor qaratildi.

Deputatlar davlat xaridlari yo‘nalishini huquqiy jihatdan tartibga solish borasida qator takliflarni ilgari surdi. Mas’ul vazirlik va idoralar tomonidan moliyaviy nazorat tadbirlarini ro‘yobga chiqarishda xalqaro standartlarni qo‘llash, davlat xaridlarini amalga oshirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish va sohada insofli raqobat muhitini yaratish shular jumlasidandir.

Shu yil 5-mart kuni Prezidentimizning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashning yig‘ilishida to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar asosida amalga oshirilayotgan davlat xaridlarini ikki karra qisqartirish yuzasidan bergan topshiriqlari ijrosidan kelib chiqib ushbu masalalarga aloqador mas’ul vazirlik va idoralarning takliflari atroflicha muhokama qilindi. Shu bilan birga, xalq vakillari Yagona yetkazib beruvchilar reestriga kiritilgan yetkazib beruvchi bilan davlat xaridini amalga oshirish, bunda raqobatli savdo turlarini cheklovchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar va boshqa bitimlar tuzilishini nazarda tutuvchi qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish tashabbusini ilgari surish amaliyotini qat’iyan taqiqlash borasida o‘z fikrlarini bildirdi.

Munozaralar davomida deputatlar davlat xaridlari sohasidagi islohotlarni yangi sifat bosqichiga olib chiqish, bu borada korrupsiya holatlarining oldini olish bo‘yicha xalqaro tajribadan keng foydalanish, tender savdolarida shaffoflik va raqobat erkinligi prinsiplariga qat’iy amal qilishga oid taklif va tavsiyalarini bayon etishdi. Shuningdek, tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda ishlash yuzasidan qizg‘in fikr almashildi.

Yakunda qo‘mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

**“Xalq so‘zi”.**

# INNOVATSIYALAR VA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH YO‘LIDA HAMKORLIK

## Anjuman

*Kecha poytaxtimizda “Barqaror rivojlanish yo‘li: innovatsiyalar va kambag‘allikni qisqartirish uchun hamkorlik” mavzuida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi.*

Unda Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi a’zosi Malika Qodirxonova so‘zga chiqib, O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish va bandlikni ta’minlash sohasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar haqida to‘xtaldi. Xususan, mazkur yo‘nalishda parlament nazoratining ahamiyati, ayollar va yoshlarning mehnat bozoriga samarali integratsiyasiga qaratilgan davlat dasturlari, shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlik haqida so‘z yuritdi.

Anjuman doirasida panel munozaralar, amaliy mashg‘ulotlar va mavzuga oid sessiyalarda zamonaviy innovatsion yondashuvlar muhokama qilinib, yoshlar bandligi, mintaqaviy rivojlanish, korporativ ijtimoiy mas’uliyat hamda ta’lim sohasidagi tashabbuslarning ahamiyatiga alohida e’tibor qaratildi.

Yakunda kambag‘allikka qarshi kurashish, inson kapitalini rivojlantirish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga qaratilgan 2030-yilgacha mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi” va konferensiya rezolyutsiyasi qabul qilindi.

**“Xalq so‘zi”.**

# INSTITUTSIONAL IMMUNITET YARATISH SARI MUHIM QADAM

1

Xalqchil tashabbuslardan yana biri – bu har oyning 1 – 5 sanalarida reja asosida “qizil” toifadagi mahallalarga tushib jinoyatlarning kelib chiqish sabablari chuqur tahlil qilinishi. Bu orqali “qizil” toifadagi mahallalar faoliyati hamda u yerdagi mas’ullar ish tajribasi o‘rganilib, ular faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Shuningdek, 2025-yilning 1-iyulidan yirik investitsiya loyihalarida korrupsiyaga qarshi xalqaro standartlar hamda yirik auksion shartlarini raqobatbardoshlik ekspertizasidan o‘tkazish tartibi joriy etiladi. “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimi qamrovi yanada oshirilib, bosqichma-bosqich xalqaro tashkilotlar ishtirokidagi loyihalarga joriy qilinadi.

Umuman, korrupsiyaga qarshi kurashishda samaradorlikni oshirishga qaratilgan bunday tashabbuslarni ko‘plab keltirish mumkin.

Qabul qilingan qaror orqali ham davlat organlari va tashkilotlarida “halollik vaksinasi” tamoyili asosida korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirishga oid ustuvor vazifalar belgilandi. Xususan, korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, ularga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish choralari ko‘riladi. Davlat xizmatlarini ko‘rsatishda korrupsiyaviy omillarni bartaraf qilish, maishiy korrupsiyaning oldini olish, shu jumladan, raqamlashtirish, byurokratiyani qisqartirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi. Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazoratni amalga oshirish va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash imkonini beruvchi situatsion markazlar faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.

2027-yil 1-yanvargacha huquqiy eksperiment tariqasida Sog‘liqni saqlash, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi, Suv xo‘jaligi vazirliklari, “O‘zbekneftgaz” AJ va “O‘zsuvta’minot” AJning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari rahbari lavozimiga agentlik xodimlari tayinlanadi.

2025-yil 1-iyulga qadar esa “E-anticor.uz” elektron platformasida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari rahbarlari va xodimlarining elektron reestrini yuritish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qilingan ishlar haqidagi hisobotni elektron shaklda taqdim etish, anonim so‘rovnomalar o‘tkazib, natijalarini jamoatchilikka e’lon qilish imkonini beruvchi elektron modul ishga tushiriladi.

Xullas, bu hujjatlar orqali O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi institutsional immunitet yaratish sari muhim qadamlar tashlanmoqda. Maqsad esa korrupsiyaga qarshi kurashishda faqat nazorat emas, ishonchli tizim va samarali mexanizmlarni hayotga tatbiq etishdir.

**Gulnoraxon ABDUVOHIDOVA,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.**

**Poytaxtimizda Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti (TURKSOY) va O‘zbekiston Badiiy akademiyasi hamkorligida “Turkiy dunyo ayol hunarmandlari” xalqaro ko‘rgazmasi o‘tkazilmoqda.**

# AVLIYOLAR DIYORI, ALPLAR YURTI – BUXORO!





**Abdusaid KO‘CHIMOV,**
**Oliy Majlis Senati a’zosi,**
**O‘zbekiston Respublikasida**
**xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiyi.**

1

Qizil jallodlar 1920-yilning 28-avgust – 2-sentyabr kunlari shaharga qarshi 7000 piyoda, 2500 otliq askar, 40 ta zambarak, 5 ta bronepoyezd tashladi. To‘plardan 12 ming snaryad otildi, 11 ta aeroplan shahar ustida uch kun bomba yog‘dirdi. Shahar, hatto, kimyoviy snaryadlardan o‘qqa tutildi. Qarshi va Samarqand darvozalari tagiga 800 kilogrammdan porox ko‘mib portlatildi. *“Buxoroni bosib olish jarayonida 34 guzar, 3 mingdan ortiq do‘kon, 20 ta saroy, 29 ta masjid yonib xarob bo‘ldi,* – deb yozadi o‘sha voqealar shohidi bo‘lgan tarixchi Muhammad Ali Baljuvoniy. – *Shaharda 3 mingga yaqin hovli yonib batamom kul bo‘ldi. Buxoro shahri qariyb 20 kun yondi... Buxoroning shu darajada xarob bo‘lganini hech bir tarix ko‘rmagan edi”.* Buxoroliklar “kichik qiyomat” deb atagan bosqin tugashi hamono ikki eshelon (vagon emas, eshelon!) oltin Toshkent orqali Moskvaga jo‘natildi. Bu talovning yana bir guvohi Turkkomissiya vakili G. Safarovning xotirasida mana bunday so‘zlar bor: *“Buxoroga kelgan qizil qo‘shinlar, eng avvalo, talonchilik bilan shug‘ullandilar. Ular hammani va hamma narsani taladilar. Umuman, qizillar Buxoroni talash uchun kelgan edilar”.*

Talonchilik qon-qoniga singib ketgan chorizm qaroqchilari bir emas, o‘n emas, yetmish yil taladi Buxoroni. Yer ostiyu yer usti javohirlari eshelon-eshelonlab tashib ketilayotganini ko‘rganda alam bilan tishlagan lablaridan tirqirab qonlar oqdi Buxoroning. Chidadi. Ne-ne talovlarni ko‘rgan Buxoro bu safar ham chidadi, qaddini bukmadi.

Nihoyat, mustaqillik quyoshi porlab, qora bulutlar quvib-haydalganda osmon qadar kengayib ketdi Sharif kentning alpona ko‘kraklari. Qoraqumu Qizilqum cho‘llarida shamoldek uchdi erka jayronlar, to‘rang‘ilu saksovullar oy nurlariga ko‘mildi, laylaklar raqsga tushdi baland minoralar ustida. Ohularning dupuriga to‘ldi Dengizko‘lu Sho‘rko‘lu To‘dako‘lu Qoraqir chakalakzorlari.

Ammo...

## 2

Ammo...

***Dillar xira, ko‘zlar nam edi hali.***
***Kelajakka ishonch kam edi hali...***

Nafaqat Buxoro, balki butun O‘zbekiston “qilichning damiday arqon ustida, kiprikdagi yoshday” turgan dorboz kabi edi o‘sha kunlarda. Qizil imperiyaning yetmish yillik qabohatlari, “o‘zbeklar ishi” deyilmish qatag‘oni hamma ko‘chalarni buzib-kovlab tashlagan, ming-minglab begunoh odamlar kishanband, bolalar yetim, ayollar xo‘rlangan edi Gdlyan, Ivanov degan qashqirlar dastidan. Daryoyu soylarni loyqadan, dashtu dalalarni achchiq garmseldan tozalash, buzilgan imoratlarni tiklash, yangilarini qurish, obod va to‘kin qilish lozim edi el dasturxonini. Buxoro uchun ham juda og‘ir kechdi mustaqillikning dastlabki yillari. Murakkab kunlarda dunyo tamaddunida Ikkita Evrilish yaratgan bobolar ruhi madad berdi Buxoroi sharifga. Izdan chiqqan iqtisodiyot, yirtiq-yamoq ust-bosh, o‘ydim-chuqur ko‘chalar xalqning bir mushtga aylanib qilgan mehnatlari natijasida sekin-asta tuzatildi. Qayta tiklandi, ta’mirlandi Buxoroning bir nechta tarixiy obidalari, shaharning 2500-yilligi ulkan bayramga, katta to‘yga aylanib ketdi. “Yangi O‘zbekiston”ni qurish, uchinchi Renessans poydevoriga birinchi g‘ishtlarni qo‘yish g‘oyasi, hech shubhasiz, ayricha kuch bag‘ishladi, tafakkur berdi odamlarga. Xalq qalqdi, xalq qo‘zg‘aldi, xalq yanada jipslashdi. Uyg‘onish damlarida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Buxoroga qilgan tashriflari buxoroliklar qalbini ishonch va g‘ayrat havolariga to‘ldirgani ham chin haqiqat. Bahor yomg‘irlaridan so‘ng to‘lib-toshgan daryolarga, qizg‘aldog‘u bo‘tako‘zlarga ko‘milib borayotgan dalalarga qiyoslash mumkin edi o‘sha damlarni.

Shoir aytganidek, yaratish ishtiyoqi qoplayverdi qadim vohani. Va...

***Shu zayl chechaklar kula boshladi,***
***Ko‘ngillar g‘ayratga to‘la boshladi.***

## 3

Bir qirg‘og‘i qo‘shni Turkmaniston bilan, boshqa qirg‘oqlari mamlakatimizning Navoiy, Qashqadaryo, Xorazm viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi bilan chegaradosh, qariyb 40 ming kvadrat kilometr maydonda tirikchilik qilayotgan 2 million 100 mingga yaqin aholi yeng shimarib ishga tushdi.

Aristontov, Oltintov, Yetimtov, Tomditov, Qultuqtog‘ quchog‘idagi silur, devon, toshko‘mir, bo‘r, paleogen; Muruntov, Aytimtovdagi rangli va nodir metallar; viloyat shimolidagi grafit, oltingugurt, gips, kvars, ohaktosh kabi xazinalar; Otbosim, Kulbeshqoq, Qandim, Oqqum, Doyaxotin, Toshquduq, Gazlidagi konlar belni mahkam bog‘ladi. Yutuqlar yutuqlarga, yangiliklar yangiliklarga ulandi.

Sanoat, qurilish, qishloq xo‘jaligi yoki ta’lim deysizmi, sog‘liqni saqlash, sport, turizm yoki tadbirkorlikmi – qay soha bo‘lmasin, boychechakdek ochildi. Tarix uchun nihoyatda qisqa, bor-yo‘g‘i sakkiz yilda sakson yillik manzil ishg‘ol qilindi.

Mana, ulardan ayrimlarining raqamlardagi qiyofalari:

– 2017-yilda 17,2 trillion so‘m bo‘lgan yalpi hududiy mahsulot hajmi 2024-yilda 71,6 trillion so‘mga, aholi jon boshiga YAHM 18,2 million so‘mdan 34,7 million so‘mga ko‘paydi.

Jumladan, 2024-yilda 2017-yildagiga nisbatan:

– sanoat mahsulotlari hajmi 6,6 barobar;

– xizmatlar miqyosi 6,3-marta;

– qurilish ishlari 6,6 karra;

– qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 3,2 barobar oshdi.

2017-yilda 59,8 mingta ish o‘rni yaratilgan viloyatda 2024-yilga kelib, bu ko‘rsatkich 3,9 barobar o‘sib, 231,5 mingtaga yetdi va 2017-yilda 5,5 foiz bo‘lgan ishsizlik darajasi oxirgi 8 yilda 5,1 foiz qisqarib, 0,4 foiz pasaydi.

2024-yilda 37,3 ming nafar aholi kambag‘allikdan chiqarildi.

Tadbirkorlar soni 37,6 ming nafarga yetib, 2017-yildagiga nisbatan 25 ming nafarga oshdi. Ularning viloyat iqtisodiyoti (YAHM)dagi ulushi 73 foizga yetdi.

Mahalliy byudjet daromadi 2017-yildagi 1,3 trillion so‘mdan 2024-yil yakuni bilan 3,9 trillion so‘mga aylandi.

Mahalliy byudjet ixtiyorida qolgan 215,3 milliard so‘m mablag‘lar viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadlariga sarflandi.

## 4

Xo‘sh, bu yutuqlarning siri nimada? Yer o‘sha, suv o‘sha, ob-havo o‘sha, odamlar o‘sha – hammasi aslida bor edi-ku?

Ijtimoiy tarmoqda yaqinda e’lon qilingan quyidagi post og‘riqli savolga javob bergandek bo‘ladi, nazarimda: dunyoda Efiopiya, Sudan degan davlatlar borligini hamma biladi. Ularning birinchisida 54 million, ikkinchisida 42 million sigir boqiladi. Ammo bu mamlakatlarning ikkoviyam qoloq va qashshoq. 11 million sigir parvarishlaydigan Niderlandiya esa jahonni sutli mahsulotlar bilan ta’minlamoqda. Demak, muammo sigirlarda yoki boylikda emas, balki iqtisodiyotni oqilona boshqarishda ekan...

Endi kechagi havolarga zambarak o‘qlari yog‘dirishdan tiyilib, bosib o‘tilgan qadamlarni ozgina tahlil qilsak, ne boisdan egnimiz yupun, dasturxonimiz g‘arib bo‘lgani ravshanlashadi. Demak, mamlakatda boshqaruv siyosatini to‘g‘ri yo‘lga tushirmoq lozim.

Millat va davlat uchun behad tahlikali kunlarda siyosat olamida Shavkat Mirziyoyevning paydo bo‘lishi adolatli, shaffof siyosatning o‘rni qanchalar muhim ekanini tezda ayon ko‘rsatdi. Shavkat Mirziyoyev bilan nafaqat O‘zbekistonda, balki qadim Turonu Turkistonda tarixiy tub burilishlar davri boshlandi. Buni o‘sha kunlarda uncha tushunmaganlar ham bugun yaqqol tushunib turibdilar. Xalqaro anjumanlarda, majlisu mashvaratlarda, suhbatu davralarda dunyo siyosatchilari tomonidan bildirilayotgan e’tiroflarda esa katta hikmat mujassam.

Darhaqiqat, Shavkat Mirziyoyev iqtidorga kelganidan so‘ng siyosiy va iqtisodiy boshqaruv tizimi tubdan o‘zgara boshladi. Jamiyat harakatga keldi. Dimlanib yotgan eshiklar ochildi. Chim bosgan ariqlar, ajriq qoplagan dalalar tozalandi. Shijoatga undaydigan, qo‘liga ketmon, bel berib, o‘ziyam yeng shimarib ishga kirishadigan odam tinmasdan mamlakat kezdi. Fuqarolar holidan xabar oldi, gurunglashdi, dardini, hasratini eshitdi, orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarish yo‘llarini qidirdi.

Ko‘p o‘tmay ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan ajib yangiliklar sodir bo‘la boshladiki, odamlar asrlar davomida hushi tugul, yetti uxlab tushida ham ko‘rgan emasdi bunaqasini.

Davlat rahbarining tuyg‘ulari, qayg‘ulari, uyqu bermagan bezovtaliklari, butun Buxoroyu azimning tashvishiga, bezovtaligiga aylandi. Keyingi yillari mazkur vohaga qilingan sakkiz tashrif esa qaynar buloq misoli tunu kun uyg‘oq, tiyrak bo‘lishga chorladi hamma-hammani. Yurtboshimiz qalbida hamisha lovullab turguvchi yorqin alanga kattayu kichikning kuchiga kuch, g‘ayratiga g‘ayrat qo‘shdi. Iftixor deyilmish mardona tuyg‘ular qaytdi Buxoro tomonlarga ham.

So‘nggi besh yilda Prezidentning viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan sakkizta Farmon va qarori qabul qilindi. O‘z vaqtida ko‘rilgan chora-tadbirlar va mamlakatimizda ibratli urfga aylangan ilhombaxsh tashabbuslar ming-minglab ko‘ngillarga xurramlik bag‘ishladi, xonadonlarga obodlik, dasturxonlarga fayzu baraka kiritdi, kambag‘allar, ishsizlar kamaydi. Sayxunobod, Zarbdor, G‘ijduvon, Uychi tajribalari asosida 150 mingdan ortiq kishilar ish bilan ta’minlandi. 12,9 ming nafar fuqaroga imtiyozli kredit, 2,5 ming kishiga subsidiya ajratildi. 4,2 ming kishi kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitildi, ular ham ishli bo‘ldi.

Og‘riqli muammoning yana biri, xorijda ishlayotganlar taqdiri edi. Muammoni hal qilish uchun viloyatning barcha tuman va shaharlarida “mahalla yettiligi” ishtirokida xatlov o‘tkazildi. Uyma-uy yurib o‘tkazilgan mazkur tadbir natijasida xorijda ishlayotgan va 500 dollardan kam daromad topayotgan 13,5 ming muhojirning ro‘yxati shakllantirildi. Ular bilan onlayn ZOOM elektron platformasi orqali muloqot o‘tkazilib, yurtimizda yaratilayotgan sharoitlar tushuntirib berildi. Natijada bir yilning o‘zida 32,5 ming kishi Buxoroga qaytib keldi. Kelganlar ish bilan ta’minlandi. Xorijda mehnat qilish istagida bo‘lganlar endilikda maxsus dasturiy tizim asosida tayyorlanmoqda – til, kasb-hunar o‘rgatilyapti ularga. Qisqa vaqtda chetda ishlash niyatidagi 3 647 fuqaroning 380 nafari sanoat, 2 242 nafari xizmat ko‘rsatish, 392 nafari qishloq xo‘jaligi, 633 nafari qurilish kabi 20 dan ortiq kasblarga o‘qitildi. 1 524 nafariga ingliz, nemis, koreys, yapon hamda rus tillari o‘rgatildi. Maqsad bitta – buxorolik muhojir bundan buyon halovatda mehnat qilsin!

## 5

***Daryoga aylandi irmoqlar, soylar,***
***Qaddini rostladi muqaddas joylar.***

***Ahli dun daryoyu tog‘lar oshdilar,***
***Shoshdilar, Buxoro tomon shoshdilar.***

Shoshdilar... Jahon ahli azal-azaldan jahon xalqlarining havasini keltirgan, o‘n emas, yuzlab noyob arxitektura yodgorliklari, tarixiy manzillari, 1000-yildan buyon go‘zal qiyofasini saqlab kelayotgan Ismoil Somoniy maqbarasi; asrlar davomida Buxoro hukmdorlarining rasmiy yashash joyi bo‘lgan “shahar ichidagi shahar” deyilguvchi Ark qal’asi, Poyi Kalon me’moriy majmui, uning yonidagi Masjidi Kalon va ro‘baro‘sidagi Mir Arab madrasasi, Labi Hovuz va uning atrofidagi Ko‘kaldosh, Nodir Devonbegi madrasa va xonaqolari; shahar tashqarisidagi Buxoro amirining yozgi saroyi bo‘lgan, Oy va yulduzlar o‘rtasidagi joy deya shoirona nomlangan “Sitorai Mohi xosa” saroyi kabi ko‘rku chiroyda tengsiz qadimiy koshonalar o‘lkasi Buxoroni ko‘rmoqqa, ziyorat qilmoqqa shoshdilar.

Ammo Xitoydan Rimgacha olib boruvchi Buyuk Ipak yo‘lining eng muhim chorrahalaridan birida joylashgan; 287 ta arxeologik yodgorligi, 507 ta arxitektura obyekti, 18 ta diqqatga sazovor joyi, 17 ta monumental san’at yodgorligiga ega bo‘lgan viloyatga turistlarning kelishi yaqingacha juda siyrak edi.

Qalovini topsang, qor yonadi. Mamlakat rahbari turizmni yuksaltirish “qalovini” ham topib berdi. Dastlab milliy qadriyatlarni tiklash, rivojlantirish, madaniy merosni, ayniqsa, tarixiy-me’moriy obidalarni kelgusi nasllarga yetkazishga e’tibor berildi. Masjidi Kalon, Chorbakr, Ark qal’asidek qator osoriatiqalar ta’mirlandi. Tasavvuf namoyandalari, Naqshbandiya tariqati asoschilari bo‘lgan Abduxoliq G‘ijduvoniy, Bahouddin Naqshband ziyoratgohlari obod qilindi.

Vazirlar Mahkamasining qarori bilan viloyatdagi 829 ta moddiy madaniy meros obyekti davlat muhofazasiga olindi.

Yurtimizga turistlarning kelib-ketishi bilan bog‘liq to‘siqlarning olib tashlanishi, dunyodagi 93 ta davlat fuqarolariga vizasiz kirish huquqi, 56 ta mamlakatga elektron viza olish, 47 davlatga besh kunlik tranzit vizasiz kirish, 76 davlatga yengillashtirilgan tartibda turistik viza olish imkoniyatlarining yaratilishi va konvertatsiya masalasining uzil-kesil hal qilinishi turistlarga katta yo‘llarni ochib yubordi, Buxoro darvozalarini ham.

Faqat 2024-yilning o‘zida 1,7 million xorijlik Buxoro ziyoratida bo‘ldi. Bu raqam 2016-yilda 169,6 mingga yetar-yetmas edi, xolos. So‘nggi yetti yilda turistlar soni 10,2 baravar ko‘payib, valyuta tushumi 11,7 karra oshdi va 436,3 million dollarga yetdi.

2025-yil yakuniga qadar turistlar oqimini 2,2 million nafarga yetkazish, pul tushumini 600 million AQSH dollaridan oshirish kutilmoqda.

Buxoro zaminida dunyoga kelib Islom sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa qo‘shgan Imom al-Buxoriy, Abu Ali ibn Sino, Abu Havs Kabir, Sayfiddin Boxarziy, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Bahouddin Naqshband kabi ulug‘ olimu ulamolar qoldirgan umumbashariy merosni ziyorat qiluvchilar safi, ayniqsa, ortdi.

Lekin bular hali hammasi emas. Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, ziyorat yo‘nalishi bo‘yicha Buxoroda har yili 90 milliongacha sayyohni jalb qilish imkoni mavjud. 276 million aholisi bo‘lgan Indoneziyaning o‘zidan 20 million turist kelishi mumkin. Shuningdek, Malayziyadan 7, Singapurdan 1,2, Turkiyadan 10, Erondan 5, Bangladeshdan 8, Hindistondan 20, Rossiyadan 4, MDH mamlakatlaridan 5 milliondan ko‘proq musulmon ziyoratchilarni jalb qilsa bo‘ladi.

Maqsadga erishish yo‘lida zarur turizm infratuzilmasi, zamonaviy transport logistikasi, qulay shart-sharoitlar yaratish ishlarini amalga oshirish yumushlari allaqachon boshlab yuborilgan. Yetti pir va boshqa ziyorat obyektlarida yirik hajmdagi rekonstruksiya va ta’mirlash-tiklash ishlari bajarildi, zamonaviy mehmonxonalar ishga tushirildi.

Salohiyatli tadbirkor va investorlarning turizm tarmog‘iga qiziqishi kuchaydi. Ular tomonidan so‘nggi uch yilda 60 ta mehmonxona, 51 xostel, 123 ta oilaviy mehmon uyi va 9 xonali motel faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Shuningdek, xalqaro standartlarga mos yana 2 ta 4 yulduzli, 4 ta 3 yulduzli mehmonxona ishga tushdi. “Wyndham”, “Mercure”, “Sahid” kabi xalqaro brendlar kirib keldi. “Hyatt regency”, “Hilton”, “Ramada” xalqaro brendlari bugun-erta ish boshlash arafasida.

Yangi mehmonxonalarda 2 mingdan ziyod yoshlar 500 dan 1200 dollargacha maosh olgan holda mehnat qilayotgani ko‘ngillarga ayricha shukuh bag‘ishlaydi.

Bulardan tashqari, Romitan tumanida “Bukhara Oasis”, To‘dako‘l bo‘yidagi “Silk Road” suv havzalari turistlarni qabul qilmoqda.

“Ark qo‘rg‘oni”ning 100-yil avval vayron etilgan uch gektarlik qismi arxeologik park sifatida qayta tiklanib turistlarning tashrif obyektiga aylantirildi.

Natijada 2024-yilning o‘zida soha bo‘yicha 18,1 mingta yangi ish o‘rni yaratildi. Ayni paytda 73,3 mingdan ko‘proq aholi shu sohada mehnat qilmoqda, bu raqam 2017-yilda 3 ming atrofida edi...

2024-yilda ichki turizmda 4 million sayohatchi qayd etildi.

Sohaga e’tibor kuchayishi yangi-yangi madaniy tadbirlar o‘tkazish imkonini yaratdi.

Yana misollarga murojaat qilamiz.

2019-yilning fevral oyida Buxoro shahrida I xalqaro ziyorat turizmi forumi o‘tkazildi. Unga dunyoning 34 davlatidan islom olamidagi nufuzli xalqaro tashkilotlar, sayyohlik uyushmalari va din ulamolaridan iborat 130 dan ortiq mehmonlar tashrif buyurdi.

2024-yilning mart oyida bo‘lib o‘tgan “Ichki turizm yarmarkasi” va “Bukhara Destination Forumi”da, Misr, Eron, Iordaniya, Livan, Jazoir kabi davlatlardan mehmonlar keldi. O‘sha yilning may oyida bo‘lgan yana bir tadbir – II xalqaro zardo‘zlik va zargarlik festivalida qatnashgan 100 mingga yaqin ishtirokchilarning 18 mingdan ko‘prog‘i xorijlik turistlar edi.

2024-yilning noyabrida bo‘lgan “Xalqaro ziyorat turizmi haftaligi” doirasida Vobkent tumanidagi Shirin qishlog‘iga “turizm qishlog‘i”, G‘ijduvon tumanidagi Qo‘rg‘on mahallasiga “turizm mahallasi” maqomi berildi.

Buxorodagi xalqaro tadbirlarni butunjahon e’tirof etdi. Va:

– Poyi Kalon majmuasi “SHHTning sakkizinchi mo‘jizasi” deya e’tirof etildi;

– Buxoroga “Butun jahon hunarmandlar shahri” maqomi berildi;

– diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik yo‘nalishi bo‘yicha “Buxoro deklaratsiyasi” qabul qilindi;

– Buxoro shahri “Turkiy dunyoning yoshlar poytaxti” deb e’lon qilindi hamda Qohira (Misr) va Bamako (Mali) shaharlari qatori bu shahri azim ham Islom madaniyati poytaxti sifatida muhrlandi.

## 6

***Bugun shonu shavkati sig‘mas tavsif-ta’rifga,***
***Olam boqar havas-la Buxoroyu sharifga.***

Buxorodagi yuksalishlar haqidagi hikoyamizni davom ettirishdan avval xalqaro tajribalardan birini esga olamiz.

1900-yil butun Amerikada atigi 10 mingta avtomobil ro‘yxatga olingan. Asfalt yo‘llar, yonilg‘i quyish shoxobchalari deyarli bo‘lmagan. Mashina sotib olishga amerikaliklarning qurbi ham yetmagan. Henri Ford degan insonning paydo bo‘lishi hammasini o‘zgartirib yubordi. U tadbirkorligi, aql-idroki va investitsiyadan samarali foydalanish orqali yirik avtomobil ishlab chiqarish kompaniyasini tuzdi.

Kompaniya 1909-yildan 1927-yilgacha 15 milliondan ziyod mashinalar ishlab chiqardi. Avtomobillarning ko‘payishi yo‘l qurilishiga, yangi ish o‘rinlari yaratilishiga, bu esa jinoyatlar kamayishiga olib keldi. Po‘lat, shisha, yog‘och, rezina, bo‘yoq, paxta, temir yo‘l relslari, kemalardan foydalanishni oshirdi; o‘quv muassasalari, restoranlar, mehmonxonalar qurish, turizm, gaz quyish shoxobchalari, neftni qayta ishlash, davlat patruli, avtomobillarni tartibga solish, avtokreditlar sharoitini yaxshiladi; yaratilgan yangi ish o‘rinlari esa dizaynerlik, tekshiruvdan o‘tkazish, sotuv, reklama, ta’mirlash, moliya, kadrlar bilan ishlash, boshqaruv, eh-he, sanayversak, adog‘i ko‘rinmaydi.

Bitta avtomobilsozlikning mamlakat rivojiga ta’sirini qarang!

To‘g‘ri, hamma innovatsiyalar ham Fordniki kabi katta ta’sir kuchiga ega bo‘lavermaydi. Biroq kichik innovatsiyalar ham mamlakatdagi iqtisodiy va madaniy o‘zgarish uchqunlarini alangalatib yuborishi mumkin.

Bu hikmatda qanchalar haqiqat borligini Buxoro misolida ham yaqqol ko‘rish mumkin. Qarang, 2017 – 2024-yillari Buxoroda 203,1 trillion so‘mdan ortiq bo‘lgan 9472 ta xorijiy va mahalliy investitsiya loyihalari amalga oshirildi. 5,1 milliard dollarlik to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb qilinib, 2018-yildagiga nisbatan 30,6 barobar o‘sishga erishildi. Eksportchi korxonalar soni 148 tadan 288 taga, eksport geografiyasi 13 taga ko‘payib, 49 ta davlat qamrab olindi. 139,7 mingdan ziyod yangi ish o‘rinlari yaratildi.

Investitsiyaning ko‘payib, eksport hajmining oshishi barcha sohalar kamolotining omili bo‘ldi. So‘nggi to‘rt-besh yil ichida 13 116 ta xonadondan iborat 411 ta ko‘p qavatli uy-joy barpo etildi. 3 ming kilometr avtomobil yo‘llari, 1148,4 kilometr ichki yo‘llar ta’mirlanib, 70 dan ziyod ko‘prikda qurilish-rekonstruksiya ishlari bajarildi. 2 ming kilometr elektr tarmoqlari, 695 ta transformator punktlari hamda 9 235 ta yaroqsiz tayanch ustunlari yangisiga almashtirildi.

Qorovulbozor tumanida qiymati 400 million dollarga teng, quvvati 500 MVt bo‘lgan quyosh fotoelektr stansiyasi barpo etildi. G‘ijduvon va Peshku tumanlarida har birining quvvati 500 MVt bo‘lgan shamol elektr stansiyalari qurilishi davom etmoqda. 181 ta gaz taqsimlash qurilmasi, 158,5 kilometr gaz quvurlari ta’mirlanib, aholi xonadonlarining gaz ta’minoti yaxshilandi. 3,1 ming kilometr ichimlik suvi tarmoqlari, 21 ta suv inshooti yangidan qurildi hamda rekonstruksiya qilindi. Natijada aholining ichimlik suv bilan ta’minlanish darajasi 54,8 foizdan 73,2 foizga yetkazildi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 24,4 trillion so‘mdan 41,9 trillionga yetkazilib, 1,7 baravar o‘sdi. 2020-yildan buyon 61,4 ming gektar oborotdan chiqqan yerlar o‘zlashtirilishi natijasida 10 mingdan oshiq aholining bandligi ta’minlandi. Paxta, don, pilla yetishtirish ko‘paydi. Masalan, 2020-yil 546 ming tonna g‘alla yetishtirilgan va o‘rtacha hosildorlik 57,8 sentnerni tashkil etgan edi. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yili 618 ming tonnaga aylandi, hosildorlik 82,2 sentnerga yetib, 1,4 barobar oshdi.

Daromadning ko‘payishi ijtimoiy sohalarning yaxshilanishiga katta ijobiy ta’sir qildi. So‘nggi besh yilda 894 ta yangi maktabgacha ta’lim muassasasi tashkil etilib, ularning soni 1 258 tadan 2 143 taga yetkazildi hamda maktabgacha ta’limning qamrov darajasi 2020-yildagi 62,5 foizdan 86 foizga o‘sdi. 30 ta xususiy maktab tarmog‘i yaratildi.

Maktab bitiruvchilarining oliy o‘quv yurtlariga kirish darajasini 22,3 foizdan 59 foizga yetkazishga erishgan Buxoro muntazam ravishda respublikada eng yuqori o‘rinni egallab kelmoqda.

Sportchilar esa o‘tgan besh yilda xalqaro maydonlarda 547 ta oltin, 601 ta kumush va 1 045 ta bronza medalni qo‘lga kiritdi.

## 7

Ha, Buxoro yo‘qotilgan qadimiy shon-shavkatini tiklab boryapti. Ammo kamchiliklar, tuzatish, to‘g‘rilashga muhtoj o‘rinlar ham oz emas.

Viloyatdagi maktablarning 31 tasi, maktabgacha ta’lim muassasalarining 23 tasi ta’mirtalab. 261 ta mahallada toza ichimlik suvi muammosi hal qilinmagan. Mavjud 8 392 kilometr suv tarmog‘ining 1139 kilometri ta’mirga muhtoj. 1191 kilometrdan ortiq ichki yo‘llarning ahvoli ham achinarli. Islohotlar ko‘zgusi bo‘lmish matbuotga munosabat esa undan battar. Viloyatning otaxon gazetasi hisoblangan “Buxoronoma” bor-yo‘g‘i 1000 nusxa atrofida chop etilyapti. “Kogon hayoti”ning adadi 200 ta... Mahalliy amaldorlar ichida “Bizga gazeta-jurnallarning keragi yo‘q” deydiganlar ko‘payib bormoqda. Korrupsiya, poraxo‘rlik kabi illatlar urchishining sababi shunda emasmikan? O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori ma’lumotiga ko‘ra, o‘tgan yili korrupsiyaviy qilmishlari uchun mamlakat bo‘yicha 4906 mansabdor javobgarlikka tortilgan va ulardan 2,3 trillion so‘m zarar undirib olingan. Xo‘sh, javobgarlikka tortilganlar ichida buxorolik mansabdorlar yo‘q deysizmi? Qarindosh-urug‘chilikka ruju qo‘ygan, amal otiga mingach bosar-tusarini bilmay, el rizqini tuya qiluvchi “rahbarcha”lar, afsuski, yuribdi hozir ham o‘zlaricha “yallo” qilib. Biroq buzoqning yugurgani somonxonagacha. Jinoyatga jazo muqarrar!

Muhimi, ura-urachilik, havoyi maqtovlardan qochib inson qalbini ochadigan, samimiy, kishining g‘am-tashvishini yashirmay baralla aytadigan avlod paydo bo‘ldi. Mana bu yumushni bajar desang, og‘rinib qimirlaydiganlar o‘rnini milliy an’analarni, Vatan manfaatlarini, umuminsoniy qadriyatlarni, milliy tuyg‘ularni ustun qo‘yishga kuchi yetadigan ko‘zi ochiq, toza-pokiza avlod voyaga yetmoqda. Vatan taqdiri bilan bog‘liq yumushlarga mardonavor yelka tutib berayotgan yangi avlod buxoroliklar kuchiga kuch, g‘ururiga g‘urur qo‘shmoqda, ertangi porloq istiqbolga qat’iy ishonch tuyg‘ularini mustahkamlamoqda. Buxoro dovrug‘ini jahonga taratadi Xudo xohlasa, bu avlod.

***Buxoroning dovrug‘i doston bo‘lgaydir hali,***
***Ko‘ksi tog‘u, kamoli osmon bo‘lgaydir hali.***
***Illo, uning qadami o‘qilmagan kitobdir,***
***Jasorati, shiddati – imkoni behisobdir.***
***Hali jumla-jahonga bergaydir ko‘rku oro –***
***Avliyolar diyori, alplar yurti Buxoro.***

Ha, avliyolar, valiylar, shayxlar o‘lkasi; kishilik tarixining hamma bosqichlari – paleolit, ya’ni qadimgi tosh asridan boshlab so‘nggi feodalizmgacha bo‘lgan davrlarga oid bebaho arxeologik yodgorliklar qo‘rg‘oni; YUNESKOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilib, “tirik muzey” sharafiga erishgan makon; noyob zargarlik buyumlari, qorako‘l mahsulotlari va qadimiy “Shashmaqom” zamini bo‘lgan Buxoroda hali ochilmagan qo‘riqlar, kashfiyotchilarini kutib yotgan xazinalarning son-sanog‘i yo‘q.

Buxoro xalqining azmu shijoati, maqsadi juda baland. Yuqori marralarning eng birinchisi, 2025-yilda yalpi hududiy mahsulot hajmini 82,4 trillion so‘mga, aholi jon boshiga esa 40 million so‘mga yetkazishdir. Inflyatsiya darajasini 10 foizdan 8 foizga tushirish va Buxoroni ishsizlikdan xoli hududga aylantirish ham rejalarning eng muhim bo‘g‘inlaridan biridir. Yil adog‘igacha 214 ming 611 nafar aholi doimiy va mavsumiy ish bilan ta’minlanishi ko‘zda tutilmoqda, 9,5 mingta yangi tadbirkorlik subyekti, 263,42 gektar maydonda sanoat zonalari tashkil qilinadi. 519 ta xorijiy va mahalliy investitsiyalar ishtirokida umumiy qiymati 34,5 trillion so‘mlik ishlar bajarilib, 14,9 mingdan ziyod yangi ish o‘rinlari yaratiladi. Aholini uy-joy bilan ta’minlash dasturi doirasida 48 ta obyekt quriladi, 6,5 ming xonadonli 140 ta ko‘p qavatli uy barpo etiladi. Jamoat transporti xizmatlarini yaxshilash uchun 100 ta yangi avtobus olib kelinadi.

Bulardan tashqari, “Yashil makon” umummilliy loyihasiga muvofiq, 15,5 million tup daraxt ko‘chati o‘tqazilib, 28 ta “yashil bog‘” yaratiladi. Sayyohlar sonini ikki-ikki yarim baravarga ko‘paytirib, shunga yarasha daromad olish kabi ishlar ham joriy yil rejasiga kiritilgan.

Badiiyroq ifodalaganda, Buxoroda bir-biridan ko‘rkam bog‘lar ko‘kka bo‘y cho‘zayotir. Fidoyi, vatanparvar insonlarning kuchi, g‘ayrati, qalb qo‘ridan mehr olayotgan bu bog‘lar, albatta, mo‘l va shirin-shakar mevalar beradi, Buxoroning dovrug‘i doston bo‘ladi hali...

**FVV Akademiyasining bir guruh harbiy xizmatchi va kursantlari uchun O‘zbekiston prokuraturasi tarixi muzeyiga ekskursiya tashkil etildi.**

# ULUG‘ ALLOMALAR MEROSIGA YUKSAK EHTIROM

*Alloh taologa behisob shukrki, taraqqiyotimizning yangi davrida qabul qilinayotgan tegishli qonun hujjatlari xalqimizning e’tiqod erkinligini ta’minlash, jamiyatda diniy bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash hamda inson qadr-qimmatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Ta’kidlash joizki, yangi O‘zbekistondagi islohotlar farovon hayotni ta’minlashga qaratilgan. O‘zgarish va yangilanishlar zamirida davlatimiz rahbari tashabbusi bilan “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun” degan ulug‘ tushuncha bosh o‘ringa qo‘yilgan.*

## Munosabat

O‘tgan qisqa vaqtda O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Samarqandda Hadis ilmi maktabi, Buxoroda Mir Arab oliy madrasasi tashkil qilindi. Ushbu muassasalar “Jaholatga qarshi ma’rifat” ezgu umuminsoniy g‘oyasi asosida jamiyatda sog‘lom ma’naviy muhitni ta’minlashga, yoshlarni zamonaviy fikrlaydigan va buyuk ajdodlarimizga har jihatdan munosib etib tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Ma’lumki, Prezidentimiz tashabbusi bilan azim poytaxtimizda ulkan majmua – O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi bunyod etilmoqda. Alloh nasib qilsa, mazkur inshoot buyuk ajdodlarimiz zakovati, xalqimiz ma’naviy salohiyatiga ko‘zgi bo‘ladi. U yoshlar uchun ulkan tarbiya maktabi, sayyohlar uchun tabarruk qadamjo, qisqacha aytganda, ilm-ma’rifat koshonasiga aylanadi.

2025-yil 25-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasi tasdiqlanishi mamlakatimizda millatlar hamda dinlararo munosabatlarni mustahkamlash, jamiyatimizda tinchlik-xotirjamlikni ta’minlash, adolat va tenglikni qaror toptirishga katta hissa qo‘shmoqda.

Yurtimizdagi mana shunday ulug‘vor ishlarning uzviy davomi sifatida Prezidentimiz tomonidan “Fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi kafolatlarini yanada mustahkamlash hamda diniy-ma’rifiy sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon imzolandi. Bu muhim hujjatda belgilangan dolzarb vazifalar jahon ilm-fani va madaniyati rivojida beqiyos o‘rin tutgan buyuk allomalarimizning ilmiy-ma’naviy merosini o‘rganish, yosh avlodni ona Vatanga sadoqat, milliy va diniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash bo‘yicha boshlangan islohotlarni yangi bosqichga olib chiqadi.

Shuningdek, jamiyatimizda diniy bag‘rikenglik, millatlararo totuvlikni ta’minlash va yurtimizning jahon tamadduni beshigi sifatidagi tarixiy maqomini tiklash bo‘yicha islohotlarga yangicha ruh bag‘ishlaydi.

Ushbu Farmonda diniy sohani tubdan takomillashtirish, mo‘min-musulmonlar ibodat qilishi uchun qo‘shimcha qulayliklar yaratish, xususan, haj va umra ziyoratlariga borish bilan bog‘liq xizmatlarni raqamlashtirish, muborak safarga boruvchilar uchun shaffof elektron navbatlarni yo‘lga qo‘yish, diniy soha xodimlarining malaka oshirishida yangicha tizim joriy etish hamda ilmiy tadqiqotlarni yuqori bosqichga olib chiqish kabi ustuvor yo‘nalishlar belgilangani diqqatga sazovor.

Ayniqsa, ushbu muhim hujjatda Bahouddin Naqshband yodgorlik majmuasi markazi muassisligida Bahouddin Naqshband ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish va qator muhim vazifalarni amalga oshirish belgilangani ilm-ma’rifat ahlini cheksiz mamnun etdi. Binobarin, Bahouddin Naqshband va naqshbandiylik tariqati allomalarining insonparvarlik g‘oyalarini o‘rganish, yosh avlodni bag‘rikenglik hamda o‘zaro hurmat ruhida tarbiyalash maqsadida targ‘ibot ishlarini yanada kuchaytirish hozirgi globallashgan axborot asrida g‘oyat dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ta’kidlash lozimki, Naqshbandiya tariqati o‘zining mo‘tadilligi va bunyodkor ta’limotlari bilan boshqa tariqatlardan ajralib turadi. Unda, asosan, komil inson, ilm-ma’rifat, odob-axloq, halol kasb, ezgu amal kabi masalalarga bosh g‘oya sifatida qaraladi. Shuningdek, ushbu tariqatda insonning amallari faqat shaxs kamolotiga emas, balki jamiyatning ma’naviy rivoji va islohoti uchun ham xizmat qilishi zarurligiga alohida urg‘u beriladi. Bahouddin Naqshband hazratlari ilm va amalni o‘zida mujassam etgan, jamiyat uchun manfaatli bo‘lgan shaxsni komil inson sifatida ta’riflaydi.

Darhaqiqat, tariqat peshvosi Bahouddin Naqshband hazratlari ilgari surgan **“Dil ba yoru dast ba kor”**, ya’ni **“Qo‘ling mehnatda-yu, diling Allohda bo‘lsin”**, degan ezgu shior zamirida umuminsoniy g‘oyalar, ma’naviy kamolot, botiniy poklik ustuvor ahamiyat kasb etadi. Aslida bu ta’limot dinimizning asosiy talablaridan. Alloh taolo Qur’oni karimda: **“... Alloh senga bergan narsa bilan oxiratni izlagin, bu dunyodagi nasibangni ham unutma. Alloh senga yaxshilik qilganidek, sen ham yaxshilik qil. Yer yuzida buzg‘unchilikni izlama. Albatta, Alloh buzg‘unchilarni suymas”,** deb bayon qiladi *(Qasos surasi, 77-oyat).*

Naqshbandiya ta’limotida ham “*Insonlarni sev va ularga foyda yetkaz*”, tamoyiliga katta ahamiyat berilgan. Bu g‘oya asosiy hayot tamoyiliga aylangan. Hadisi sharifda Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam bunday deganlar: ***“Insonlarning eng yaxshisi – ularga foydasi eng ko‘p***



***tegadigani”*** *(Imom Daraqutniy rivoyati).*

Bahouddin Naqshband hazratlari hayotligidayoq bu tariqat mavqei ko‘tarilib, dunyo bo‘ylab yoyildi. Ta’limot zamon talablariga mosligi, barchaga xosligi sababli oddiy xalqqa ham, ziyolilar qatlamiga ham ma’qul edi. Ana shunday yuksak ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati bois bu ta’limot Bahouddin Naqshband vafotidan keyin yanada keng tarqaldi. Naqshbandiya ta’limoti adabiyot rivojida ham muhim o‘rin tutdi. Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab, So‘fi Olloyor kabi mutafakkirlar ijodida naqshbandiya g‘oyalari keng targ‘ib etilgan.

O‘zbekistonda yashab o‘tgan buyuk tasavvuf allomalari merosini yanada chuqur o‘rganish bugungi kunda ilmiy jamoatchilik oldida turgan muhim vazifalardan. Shu bilan bir qatorda, yurtimizda tasavvuf ta’limoti doirasida shakllangan umuminsoniy qadriyatlar, insoniy odob-axloq mezonlari, insonparvarlik va tinchlikparvarlik g‘oyalaridan yosh avlodni Vatanga muhabbat, buyuk ajdodlarga ehtirom ruhida tarbiyalash, buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi turishda samarali foydalanish dolzarb ahamiyatga ega.

Farmon asosida Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi faoliyatini yanada takomillashtirish borasida ham qator vazifalar belgilandi. Jumladan, hujjatda Imom Moturidiy, Abu Muin Nasafiy kabi buyuk alloma ajdodlarimiz qoldirgan ma’naviy merosni o‘rganish, jahon ilm-fani rivojiga qo‘shgan beqiyos hissasini xalqimiz, ayniqsa, yoshlarga targ‘ib qilish, asarlarining tarjimalarini nashr etish, islom dinining insonparvarlik mohiyatini keng ommaga yetkazish kabi muhim masalalar o‘rin olgan.

Zero, hujjatda qayd etilgan vazifalar buyuk vatandoshimiz, islomiy ilmlar rivojiga ulkan hissa qo‘shgan benazir alloma, kalom ilmining sultoni Imom Abu Mansur Moturidiyning ibratli hayot yo‘li va boy ilmiy-ma’naviy merosini har tomonlama chuqur o‘rganish, moturidiylik ta’limotiga xos bag‘rikenglik va mo‘tadillik tamoyillarini xalqimiz va jahon jamoatchiligi o‘rtasida keng targ‘ib etish, yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash ishlariga bemisl xizmat qiladi.

Shuningdek, Farmonda islom dinining insonparvarlik mohiyati, ma’rifiy-madaniy roli va rivojlanish yo‘nalishlarini ilmiy asosda o‘rganish va keng ommaga, jumladan, xalqaro jamoatchilikka yetkazish, diniy ta’lim muassasalariga ilmiy tadqiqot va o‘quv-uslubiy masalalarda hamda pedagog kadrlar va diniy xodimlarning malakasini oshirib borishda amaliy yordam berish hamda yoshlarni yot g‘oyalar ta’siridan asrash yo‘nalishida yangi loyiha va tashabbuslarni ishlab chiqish kabi ustuvor vazifalar ham alohida qayd etilgani ilmiy-ma’rifiy yo‘nalishdagi ishlarni yanada kengaytiradi.

Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining faoliyati takomillashtirilishi muborak dinimizning asl mohiyatini, ilmiy-ma’naviy asoslarini, yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk mutakallim allomalar hayoti va merosini o‘rganishni yanada kuchaytirishga turtki bo‘ladi.

Demak, mazkur Farmonning qabul qilinishi fuqarolarimizning e’tiqod erkinligini kafolatlash barobarida diniy-ma’rifiy sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqadi.

**Shayx Nuriddin XOLIQNAZAR,**
**O‘zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy.**

# O‘ZBEKISTON – KITOBXONLAR YURTI

*Mana to‘rt yildirki, mamlakatimizda kitobxonlikni rivojlantirish, xalqimizning kitobga mehru muhabbatini oshirish, xususan, mutaxassislar, ekspertlar ishtirokida kutubxonachilik va noshirlik sohasida amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilish, yangi g‘oya hamda tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash va galdagi ustuvor vazifalarni belgilab olish maqsadida Respublika kitobxonlik haftaligi o‘tkazilib kelinayotir.*




Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan o‘tkazib kelinayotgan ushbu an’anaviy tadbir joriy yil 21-aprel sanasida yurtimiz bo‘ylab “O‘zbekiston – kitobxonlar yurti” shiori ostida start oldi.

Haftalikning ochilish marosimi Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxonada tashkil etilib, unda turli davlat idoralari rahbarlari, adiblar, axborot-kutubxona mutaxassislari, jamoatchilik faollari va kitobxonlar qatnashdi.

So‘zga chiqqanlar so‘nggi yillarda yurtimizda noshirlik-matbaa faoliyati, axborot-kutubxona xizmatlarini yanada yaxshilash, kitob targ‘ibotini kengaytirish, mutolaa madaniyatini oshirish, tarjima yo‘nalishini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar xususida to‘xtaldi.

– “Noshirlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun yangi tahrirda qabul qilinib, sohaning normativ-huquqiy bazasi takomillashtirilgani, O‘zbekistonda ishlab chiqarilmaydigan matbaa uskunalari va qog‘oz xomashyosi bojxona bojidan, nashriyot va matbaa korxonalari esa foyda solig‘idan ozod etilgani ulkan rejalarni amalga oshirishga turtki bermoqda, – deydi AOKA direktori Asadjon Xo‘jayev. – Kitobxonlikka oid infratuzilmani mustahkamlash borasida 60 dan ortiq viloyat, tuman va shahar axborot-kutubxona markazlarida kapital-qurilish ishlari olib borilib, zamonaviy xizmat ko‘rsatish talablari asosida kitobxonlarga foydalanish uchun topshirilgani ham sohada olib borilayotgan ishlar samarasidan dalolat. Ushbu haftalik davomida ishlarimizni sarhisob qilib, yangi rejalarni tuzib olishimiz kelgusi yutuqlarimizga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Haftalik doirasida respublika bo‘yicha mingdan ortiq ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazilishi rejalashtirilgan bo‘lib, ayni paytda hududlarda jarayon qizg‘in kechmoqda. Xususan, Toshkent shahridagi “Dream park” istirohat bog‘i va Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar markazlaridagi madaniyat hamda istirohat bog‘lari, tuman (shahar) axborot-kutubxona markazlarida odamlar gavjum va ular “Noshirdan – kitobxonga” tamoyili asosida tashkil etilgan kitob savdo-yarmarkalarida qatnashib, o‘ziga kerakli bo‘lgan kitoblarga ega bo‘lmoqda.

Ahamiyatlisi, bo‘lib o‘tayotgan har bir seminar, taqdimot, davra suhbati va uchrashuv o‘zining unutilmas taassurotlari, ilgari surilayotgan tashabbus hamda g‘oyalari bilan kitobxon millat ertasi uchun xizmat qilmoqda.

Shuningdek, haftalik doirasida 25-26-aprel kunlari Yozuvchilar uyushmasining “Parkent” ijod uyida noshirlar va mualliflar uchrashuvini tashkil etish hamda bolalar va o‘smirlar adabiyotini rivojlantirishning dolzarb masalalarini muhokama qilish ham rejalashtirilgan.

**Rahmatjon BOBOJONOV**
**(“Xalq so‘zi”).**

# YOSHLAR G‘OYALARINI AMALGA OSHIRISH UCHUN GRANT

*Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish bo‘yicha global tashabbus – UPSHIFT dasturining ikkinchi bosqichi, UNICEFning Ijtimoiy himoya milliy agentligi qoshidagi Xalqaro inklyuziv markaz bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalarning yakuniy tanlovi bo‘lib o‘tdi.*

## Rag‘bat



Ijtimoiy innovatsiyalar bo‘yicha intensiv treningdan o‘tgan o‘nta jamoa orasidan, xolis hakamlar hay’ati oltita eng yaxshi tashabbusli loyihani tanlab oldi.

Dastlabki rejaga ko‘ra beshta loyihani taqdirlash ko‘zda tutilgan bo‘lsa-da, hakamlar hay’ati g‘oyalari dolzarbligi va yaxshi ishlab chiqilganligi bilan ajralib turgan oltita jamoaning loyihalarini qo‘llab-quvvatlashga qaror qildi.

Har bir jamoa o‘z loyihalarini ishga tushirish uchun 1000 AQSH dollari (milliy valyuta ekvivalentida) miqdorida grantni qo‘lga kiritib, UNICEF tomonidan murabbiylik yordamini oladi.

**“Xalq so‘zi”.**

## Nuqtai nazar



# SHARQ VA G‘ARB MULOQOTIDA YANGI BOSQICH

*Bugungi shiddatli geosiyosiy jarayonlar oldida Samarqand yana bir bor muhim tarixiy missiyani bajarmoqda. U Markaziy Osiyo bilan Yevropa Ittifoqi o‘rtasida yangi muloqot platformasi sifatida o‘zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlashda asosiy maydon bo‘lib xizmat qilyapti.*

Bu yil ilk marotaba bo‘lib o‘tgan “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” sammitining aynan Samarqandda o‘tkazilishi bejiz emas. Qadimda Amir Temur aynan o‘z saltanatini barpo qilganida shu yerdan turib Yevropa monarxlari bilan xavfsiz savdo masalalarida samarali hamkorlik o‘rnatgan edi. Bugungi kunda ham shu an’ana yangi ma’no kasb etib, Samarqand Markaziy Osiyo bilan Yevropa Ittifoqi o‘rtasida keng qamrovli hamkorlikni kengaytirish yo‘lida mustahkam ko‘prik vazifasini bajarmoqda.

O‘zbekiston Prezidenti “Euronews”ga bergan intervyusida ayni ana shu tarixiy ildizlar va zamonaviy ehtiyojlar uyg‘unligi haqida to‘xtalar ekan, Yevropa bilan hamkorlikda uchta muhim jihatni uqtirdi. Birinchisi, Markaziy Osiyoda yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini yangi bosqichga ko‘tarish. Ikkinchisi, transport-logistika, investitsiya va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishni kuchaytirish. Uchinchisi, iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq tahdidlarga birgalikda qarshi turish.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo dunyoning eng muhim geosiyosiy markazlaridan biriga aylandi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, tarixan bu hududda turli nizolar bo‘lib o‘tgan, suv-energetika hamda chegara masalalari muammolarni og‘irlashtirgan davrlar bo‘lgan. Biroq so‘nggi yillarda Markaziy Osiyoda mamlakatlar rahbarlarining siyosiy irodasi tufayli mutlaqo yangi muhit shakllandi. Endilikda mintaqaviy hamkorlik o‘rtasida konstruktiv muloqot, ishonch va birgalikda rivojlanish asosiy yo‘lga aylandi.

Shu bilan birga, Markaziy Osiyo davlatlarining ahilligi bugun Yevropa Ittifoqi va boshqa yirik mintaqaviy tuzilmalar bilan samarali munosabatlar o‘rnatish orqali o‘zaro manfaatli sheriklik imkoniyatlarini kengaytiryapti. Savdo aylanmasining bir necha barobar oshishi, yirik infratuzilma loyihalari, Transkaspiy va Transafg‘on yo‘laklarini rivojlantirish qabilida hamkorlikni yanada sezilarli qulay bosqichga ko‘tarishi turgan gap.

### Yevropa bilan yaqin hamkorlik

Intervyuda Yevropa Ittifoqi bilan munosabatlarimiz 30 yildan ortiq samarali hamkorlik tajribasiga asoslanishi qayta-qayta urg‘ulandi. Yevropa mamlakatlari, xususan, Germaniya, Italiya, Fransiya bilan strategik sheriklik munosabatlari yo‘lga qo‘yilgani bu yo‘nalishda hamkorlikni yanada chuqurlashtirish uchun yo‘l ochmoqda. Jumladan, “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” formati investitsiyalar, innovatsiya, transport-logistika, raqamli rivojlanish, ekologik barqarorlik kabi bir necha ustuvor jabhalarni qamrab olgan.

O‘zbekistonda bojxona sohasi, soliq tizimi va valyuta bozorida amalga oshirilayotgan liberal islohotlar, jozibador investitsiyaviy muhit Yevropa kompaniyalarining mamlakatimiz bozoriga qiziqishini yanada oshirmoqda. Hamkorlikning kengayishi natijasida O‘zbekiston iqtisodiyotida Yevropa kapitali ishtirokida 1 mingdan ortiq korxonalar faoliyat ko‘rsatib, investitsiyalar hajmi 30 milliard yevroga yetib ulgurdi.

Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta’minlashda Afg‘oniston omili muhim ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz afg‘on xalqini hech qachon tanholikda qoldirmaslikni, ular bilan iqtisodiy, gumanitar yo‘nalishlarda doimiy hamkorlik olib borilishi lozimligini ta’kidladi.

Zero, mamlakatda tinchlikka erishilishi nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro xavfsizlikka ham ta’sir qiladi. Shu bois O‘zbekiston Yevropa Ittifoqi va boshqa hamkorlar bilan birgalikda Afg‘onistonni mintaqaviy iqtisodiy jarayonlarga jalb qilish maqsadida infratuzilma loyihalarini uyushtirish va ta’lim sohasida ko‘makni kengaytirish tarafdori.

Bundan tashqari, iqlim o‘zgarishi sababli Markaziy Osiyoda qurg‘oqchilik, muzliklar erishi va suv tanqisligi muammolari tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Yevropa esa anomal issiqlik, yong‘inlar kabi muammolar bilan to‘qnashar ekan, global ko‘lamda muammo – umumiy. Prezidentimiz iqlim muammosiga qarshi kurashda Yevropa bilan “yashil” munosabatlar dasturlarini kuchaytirishni taklif etdi. Bu esa qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish, Orolbo‘yida ekologik holatni yaxshilash kabi sa’y-harakatlarimizni kuchaytirish imkonini beradi.

“Markaziy Osiyo – YI Toza energetika sherikligi”ni yaratish, vodorod va ammiak kabi “yashil” yoqilg‘ilardan keng foydalanishdek tashabbuslar jahon miqyosidagi iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq xatarlar oldini olishda mintaqamiz rolini oshiradi. Shu bilan birga, Markaziy Osiyoda “uglerod kreditlari” bozorini rivojlantirish iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim omil bo‘ladi.

### Kutilgan natijalar

Samarqandda bo‘lib o‘tgan “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” sammitining tarixiy ahamiyati shundan iboratki, u Markaziy Osiyo bilan Yevropa munosabatlarida yangi davrni boshlab berdi. Ushbu oliy darajadagi anjumanda “strategik sheriklik” maqomiga erishildi, endilikda mintaqalararo hamkorlik siyosiy, iqtisodiy, transport-logistika, energetika, investitsiya va raqamli rivojlanish sohalarida yangi sur’atlar kutilyapti.

Eng muhim hujjatlardan biri – Samarqand deklaratsiyasi bo‘lib, unda Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi hamkorlikni izchil rivojlantirish mexanizmlari belgilab berildi. Bu mintaqaviy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish va insonlar farovonligini ta’minlash yo‘lida muhim “Yo‘l xaritasi” vazifasini bajaradi.

Samarqandda bo‘lib o‘tgan sammit xalqaro hamkorlik va hamjihatlikni qadrlaydigan har bir inson uchun umidbaxsh voqelikdir. Ya’ni Markaziy Osiyo mamlakatlari va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi yaqin sheriklik xalqaro munosabatlarning yangi sifati, ko‘lami va tartibini shakllantiradi.

Shu ma’noda, Prezidentimiz e’tirof etganidek, Markaziy Osiyo “tarix chetida emas”, aksincha, jahon siyosatida istiqbolli hamkorlik jarayonlarini chizib beradigan markaziy kuch sifatida maydonga chiqdi. Ayniqsa, Afg‘onistonda tinchlikni mustahkamlash, iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirish, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash va “yashil” energiyani joriy etishda Yevropa bilan birgalikda dadil sa’y-harakatlar olib borilishi mintaqamizning kelajak taraqqiyoti uchun tamal toshi bo‘ladi.

Umuman, Samarqand sammiti Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqining o‘zaro hamkorligi uzoq muddatli strategik sheriklik asosida rivojlanishi uchun barcha asos mavjudligini ko‘rsatib berdi. Tomonlar barqaror taraqqiyot sari birgalikda odimlash irodasini namoyish etdi.

**Faxriddin ISAYEV,**
**TDIU huzuridagi «O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari» ilmiy-tadqiqot markazi direktor o‘rinbosari, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.**

## Qulaylik

# INNOVATSION MARKAZ O‘QUVCHILAR IQ DARAJASINI RIVOJLANTIRADI

*Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida Ozarbayjon Respublikasi bilan hamkorlikda STEAM innovatsion ta’lim markazi ochildi.*



Prezidentimiz qarori asosida tashkil etilgan va loyiha qiymati 15 mlrd. so‘m bo‘lgan ushbu zamonaviy markaz jami 9 ta laboratoriya, uchrashuvlar va boshqaruv xonalarini o‘z ichiga oladi. Markaz uchun Ozarbayjon Fan va ta’lim vazirligi tomonidan 551 ming AQSH dollari qiymatidagi zamonaviy laboratoriya hamda mebel jihozlari beg‘araz yetkazib berildi.

Bu yerda maktabgacha va boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘quv qurilmalari yordamida kreativ fikrlash qobiliyatini, 4 xil turdagi konstruksiya to‘plamlari esa ularning IQ darajasini rivojlantiradi. Aviasimulyator laboratoriyasidagi ilg‘or texnologiyalar orqali aerodinamika va parvoz nazariyasi, dronlar hamda sun’iy yo‘ldoshlar tuzilishi o‘rgatiladi, virtual laboratoriyada murakkab sohalarni xavfsiz muhitda o‘rganish imkoniyati yaratiladi.

**“Xalq so‘zi”.**

O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi jamoasi Badiiy akademiya akademigi, O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi, “El-yurt hurmati” ordeni sohibi, taniqli kulol
**Sharofiddin YUSUPOVning**
vafoti munosabati bilan marhumning yaqinlari va oila a’zolariga chuqur hamdardlik bildiradi.

**Ayni damlarda 26 – 28-aprel kunlari Xivada o‘tkaziladigan IV xalqaro baxshichilik san’ati festivaliga qizg‘in tayyorgarlik ko‘rilmoqda.**

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-242. 15 407 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘zA yakuni — 00.20 Topshirildi — 01.15 1 2 3 4 5 6